



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-noyabr

625-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 31-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son qarori ijrosi haqida”gi 520-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-330-son qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 31-oktabrdagi 520-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tumanda ichki xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llari, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish ishlarini jadallashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 31-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 520-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri tuman (shahar)larining Obodonlashtirish boshqarmalarida shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari hamda ichki xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini, ularda joylashgan ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarni (keyingi o‘rinlarda ichki yo‘llar) soz holatda saqlash maqsadida Ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash uchastkasi tashkil etilishi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalari hamda xo‘jaliklararo qishloq avtomobil yo‘llarini saqlash va joriy ta‘mirlash ishlarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlashni mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish belgilanganligi;

ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash ishlari bo‘yicha loyiha hujjatlarini ishlab chiqish muddatlari va mas‘ullarini aniq belgilanishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari: bir oy muddatda tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Ichki yo‘llarni saqlash va joriy ta‘mirlash uchastkasini tashkil etishi;

ikki oy muddatda Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi va Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda ichki yo‘llar va ko‘priklarni xatlovdan o‘tkazish hamda xatlov yakuniga ko‘ra tegishliligi bo‘yicha ularni o‘z tasarrufiga olish choralari ko‘rishi;

yangi tashkil etiladigan Ichki yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash uchastkalarini malakali mutaxassislar bilan butlanishini ta'minlashi;

ichki yo'llarni saqlash hamda boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan qurish, rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari hisobi yuritilishi uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli axborot tizimiga ma'lumotlar o'z vaqtida kiritilishi hamda muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlashi belgilanganligi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining 2-ilovaga muvofiq Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2025-yilda tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalarini qo'shimcha zamonaviy transport vositalari va maxsus texnikalar bilan ta'minlash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

2025-2026 yillarda ichki yo'llarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga ajratiladigan mablag'lar parametrlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

2025 yildan boshlab har yili tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalariga ichki yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash hamda xarid qilinadigan maxsus texnikalarni saqlash xarajatlari uchun talab etiladigan mablag'larni budjet parametrlarida nazarda tutishi;

2025-yil 1-aprelga qadar ichki yo'llar hisobini yuritish uchun tegishli axborot tizimini joriy qilishi belgilanganligi;

Avtomobil yo'llari qo'mitasi:

Toshkent davlat transport universiteti, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Ichki yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash uchastkasi xodimlari malakasini oshirib borish amaliyotini joriy etishi;

Toshkent davlat transport universiteti bilan birgalikda bir oy muddatda:

yo'l sohasida xodimlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqib tasdiqlashi;

2025-yildan boshlab har yili 1-yanvarga qadar tuman (shahar) kesimida malaka oshirish o'quv grafisini tasdiqlasin hamda uning ijrosini ta'minlashi belgilanganligi;

ushbu qarorga muvofiq, ichki yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun tuman (shahar) budjetlariga ajratiladigan mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining qarorlari asosida tumanlar (shaharlar) bo'yicha qayta taqsimlashga ruxsat berilganligi;

Bunda, tuman (shahar) hokimliklari tasarrufidagi ichki yo'llarni saqlash va joriy ta'mirlash ishlari uchun rejalashtirilgan mablag'larni boshqa yo'nalishlarga qayta taqsimlash qat'iyani taqiqlanganligi;

Ichki ishlar vazirligi aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida, tuman (shahar) hokimliklari tasarrufidagi ichki yo'llarning yo'l chiziqlarini chizish, yo'l belgilari va ko'rsatkichlarini, svetoforlarni o'rnatish, almashtirish, saqlash, demontaj qilish va ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalarining Jamoat xavfsizligi xizmati Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari ekspluatatsiya-montaj bo'linmalari tomonidan doimiy amalga oshirib borilishini ta'minlashi belgilanganligi;

Vazirlar Mahkamasining "Respublika aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013-yil 10-yanvardagi 4-son qaroriga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi;

belgilanishicha, 2025-yildan tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalariga agronom shtat birliklari obodonlashtirish sohasidagi mavjud shtat birliklari doirasida ajratilishi e'tiborga olinsin.

3. Tuman moliya va iqtisodiyot bosh bo'limi (Z.Jo'raboyev), tuman yo'llardan foydalanish DM (D.Sayfiddinov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (F.Mirzahmedov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Shaharlar va boshqa aholi

punktlari ko'chalari hamda ichki xo'jalik yo'llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 11-oktabrdagi 665-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov